

---

## Tuman tez tibbiy yordam bo'limiga yangi bino qurish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda

"Tashabbusli byudjet" loyihasining joriy yilgi birinchi mavsumida Respublika tez tibbiy yordam Farg'ona hududiy filiali Qo'shtepa tuman tez tibbiy yordam bo'limiga yangi bino qurish, ta'mirlash va quyosh paneli o'rnatish bilan bog'liq tashabbuslari g'olib deb topilgan edi.

Ajratilgan 1 milliard 360 million so'm mablag' hisobidan hozirda qurilish va qayta ta'mirlash ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Qisqa fursat ichida qurilish ishlari yakunlanib ko'rkam, zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan tez tibbiy yordam bo'limi xalq xizmati uchun topshiriladi.

2024-12-14 08:58:29